



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (2)

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

Road

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2026



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
2-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehnonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'NALISHLARI	12
Xudoyberdiyev Ulug'bek Axmad o'g'li	
O'ZBEKISTON KOMPANIYALARIDA DIVIDEND SIYOSATI JOZIBADORLIGINI OSHIRISH	16
Shermuxeimedov Akmal Komiljonovich	
РАЗВИТИЕ МЕХАНИЗМОВ ФИНАНСИРОВАНИЯ МАЛОГО И СРЕДНЕГО БИЗНЕСА В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ФИНТЕХА И ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА	21
Салимова Зиёда Рустамжон қизи	
ELEKTR TARMOQLARI KORXONALARIDA YO'QOTISHLAR HISOBI UCHUN ISHCHI HISOBVARAQLARI TIZIMINI ISHLAB CHIQUISH	27
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
RAQAMLI MUHITDA BANK XIZMATLARINI MASOFADAN KO'RSATISHNI TAKOMILLASHTIRISH	32
Azlarova Aziza Axrorovna	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA SOLIQ ORGANLARI FAOLIYATINI SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	36
Soyibova Matluba Ahmedboyevna	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATINI STRATEGIK BOSHQARISH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	41
M.O. Yo'ldoshova	
NARXLARNI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY KONSEPSIYASI SIFATIDA DINAMIK NARX SHAKLLANTIRISH	45
Anvar Deberdiyev	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI RAQAMLASHTIRISH VA RIVOJLANTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT KO'LAMINI QISQARTIRISH YO'LLARI	49
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
STARTAP EKOTIZIMLARINI RAG'BATLANTIRISHNING SOLIQ MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: GLOBAL MUAMMOLAR VA HUDUDIIY IMKONIYATLAR	55
Ishimova Mohinur Absalomovna	
UMUMIY OVQATLANISH TIZIMIDA B2B MARKETINGINI JORIY ETISH. (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	61
Zakirova Gulnoza Qudratovna, Aliyeva Gulnora Ildarovna	
TIBBIYOT TASHKIOTLARIDA NOMOLIVAVIY AKTIVLAR HISOBI AMALIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	67
Iskanov Xoljigit Nurkosimovich	
RAQAMLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI RIVOJLANTIRISH MARKAZIDA ICHKI AUDIT TIZIMINI TASHIL ETISH AMALIYOTI	73
Suyunov Yorqin Bekmurodovich, Nazarov Ubaydulla Abdumannapovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MONOPOLIYAGA QARSHI SIYOSATNI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	79
Yuldashev Akmal Kiyomovich	
TOG'-KON KORXONALARIDA TEXNOLOGIK TIZIM HOLATINI BAHOLASH VA IQTISODIIY SAMARADORLIK ZAXIRALARINI ANIQLASH	83
Abirova Nargizabonu	
YASHIL IQTISODIYOT TAMOIYILLARI VA ULARNING MILLIIY RIVOJLANISHI	88
Turayev Abduvohid Kuldashovich	



IQTISODIYOTNING INNOVATSION TARAQQIYOTI SHAROITIDA MEHNAT RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDAGI XORIJ MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	93
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
O'ZBEKISTON MILLIY TELERADIOKOMPANIYASI IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA SEMIR MODELIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	101
Rustamov Zafar	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH TANNARXINI PASAYTIRISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI	107
Met yakubov Azamat Djumanazarovich	
BUXORO ARK ANSAMBLI TURISTIK SIG'IM IMKONIYATLARINI BAHOLASH	111
Sulaymonova Malika Maxmudovna, Qilichov Muhriddin Husniddin o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕХАНИЗМОВ ПЛАНИРОВАНИЯ, КОНТРОЛЯ И АНАЛИЗА ДЕНЕЖНЫХ ПОТОКОВ НА МАЛЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ	116
Муродов Шавкатжон Фарходович, Зайналов Ж. Р.	
XALQARO MOLIYA INSTITUTLARI ISHTIROKIDAGI INVESTITSION LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	121
Ochildiyeva Naima Mengziya qizi, Ollokulova Feruza Mansurovna	
TIJORAT BANKLARINING KREDITLASH AMALIYOTIDA SUN'IY INTELLEKT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	127
Melibayev Sodir Adilovich	
TIJORAT BANKLARI RENTABELLIGINI TA'MINLASHDA AKTIVLAR VA REGULYATIV KAPITALNING O'RNI	135
Sheraliev Abbos Xolmuminovich	
DIGITAL TRANSFORMATION OF DECISION-MAKING IN THE NATIONAL ELECTRICITY GRID OF UZBEKISTAN	140
Abdumalik A. Djumanov, Mukhlisa M. Gafurova, Tursunmurod R. Sobirov	
VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI	147
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	



VIRTUAL IQTISODIYOTNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH MEXANIZMLARI

Yuldashev Adhamjon Axadjonovich

University of Business and Science,

Moliya kafedrası dotsenti v.b, PhD

E-mail: adhamyu84@gmail.com

ORCID: [0009-0003-3962-9789](https://orcid.org/0009-0003-3962-9789)

Annotatsiya. Mazkur maqolada virtual iqtisodiyotning shakllanishi, rivojlanishi hamda global iqtisodiyotdagi o'rni tahlil qilingan. Unda blokcheyn texnologiyalari, raqamli platformalar va metaverse asosidagi iqtisodiy jarayonlar o'rganilib, virtual iqtisodiyotning konseptual modeli hamda samaradorligi baholangan.

Kalit so'zlar: virtual iqtisodiyot, raqamli iqtisodiyot, metaverse, virtual aktivlar, blokcheyn, raqamli platformalar, kriptovalyuta.

Abstract. This article analyzes the formation, development, and role of the virtual economy in the global economic system. It examines economic processes related to blockchain technologies, digital platforms, and the metaverse, while also evaluating the conceptual model and efficiency of the virtual economy.

Key words: virtual economy, digital economy, metaverse, virtual assets, blockchain, digital platforms, cryptocurrency.

Аннотация. В статье анализируются процессы формирования, развития и роль виртуальной экономики в мировой экономике. Исследуются экономические процессы, связанные с блокчейном, цифровыми платформами и метавселенной, а также оцениваются концептуальная модель и эффективность виртуальной экономики.

Ключевые слова: виртуальная экономика, цифровая экономика, метавселенная, виртуальные активы, блокчейн, цифровые платформы, криптовалюта.

KIRISH

XXI asrda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi global iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni yuzaga keltirdi. Xususan, internet texnologiyalari, raqamli platformalar hamda blokcheyn tizimlarining keng joriy etilishi natijasida iqtisodiy faoliyatning yangi shakllari shakllanib, iqtisodiyotning transformatsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirdi. Ushbu jarayonlar natijasida iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy shakllaridan virtual muhitga bosqichma-bosqich o'tishi kuzatilib, "virtual iqtisodiyot" tushunchasi ilmiy muomalaga kirib keldi. Raqamli iqtisodiyot va virtual iqtisodiy munosabatlarning shakllanishi zamonaviy iqtisodiy tizimning yangi bosqichga o'tishini ta'minlab, bunda innovatsion texnologiyalar hal qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda [1].

Davlat rahbarining ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi nafaqat iqtisodiy jarayonlarni, balki jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan o'zgartirmoqda: "Butun dunyoda raqamli texnologiyalar barcha soha va odamlar hayotiga jadal kirib bormoqda. Bu yo'nalishga o'z vaqtida kirishgan davlatlar taraqqiy etmoqda, aksincha, an'anaviy usullarda faoliyat yuritayotgan davlatlar rivojlanish sur'atlarida ortda qolmoqda" [2].

Virtual iqtisodiyot tushunchasi, avvalo, raqamli va virtual muhitda amalga oshiriladigan iqtisodiy jarayonlar majmuasini ifodalaydi. Ushbu jarayonlar doirasida iqtisodiy operatsiyalar turli raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi, virtual aktivlar yaratiladi, taqsimlanadi va muomalaga kiritiladi. Shu bilan birga, virtual iqtisodiyot faqat ko'ngilochar soha, xususan o'yin industriyasi bilan cheklanib qolmay, balki moliyaviy xizmatlar, elektron tijorat, masofaviy mehnat bozorlari hamda metaverse tizimlari kabi yo'nalishlarda ham faol rivojlanmoqda.

Bugungi kunda virtual iqtisodiyotning rivojlanishi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, yangi biznes modellarini shakllantirish, xalqaro iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirishda muhim omil sifatida baholanmoqda. Shu sababli virtual iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini ilmiy jihatdan tadqiq etish zamonaviy iqtisodiy fan oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Virtual iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanish mexanizmlarini o'rganish bo'yicha xorijiy hamda MDH mamlakatlari olimlari o'z ilmiy tadqiqotlarida raqamli iqtisodiyot, blokcheyn texnologiyalari va metaverse muhitining iqtisodiy asoslarini keng tahlil qilganlar. Jumladan, Don Tapscott, Klaus Schwab hamda Manuel Castells kabi tadqiqotchilar raqamli transformatsiya jarayonlari va virtual iqtisodiyotning global iqtisodiyotdagi o'rnini hamda ta'sirini yoritib bergan.

Xususan, Don Tapscott o'z tadqiqotlarida blokcheyn texnologiyalarining iqtisodiy tizimlarga ta'siri va raqamli ishonch mexanizmlarini tahlil qilgan bo'lsa, Klaus Schwab "To'rtinchi sanoat inqilobi" konsepsiyasi orqali raqamli texnologiyalarning iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarga ta'sirini asoslab bergan. Manuel Castells esa axborotlashgan jamiyat nazariyasi doirasida virtual tarmoqlar va raqamli kommunikatsiya tizimlarining zamonaviy iqtisodiyotdagi o'rnini tadqiq etgan.

Shuningdek, A. O'lmasov, O. To'raqulov, B. To'xliyev, Sh. G'ulomov hamda N. Yo'ldoshev kabi o'zbekistonlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, virtual iqtisodiy jarayonlarning shakllanishi va ularni boshqarish mexanizmlari tadqiq etilgan. Mazkur tadqiqotlarda raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotga joriy etish, elektron tijoratni rivojlantirish, virtual moliyaviy munosabatlarni tartibga solish hamda innovatsion boshqaruv tizimlarini shakllantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Virtual iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishida bir qator ilg'or texnologiyalar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular qatoriga blokcheyn texnologiyasi, sun'iy intellekt, bulutli hisoblash (cloud computing) hamda katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash (big data) texnologiyalari kiradi. Mazkur texnologiyalar iqtisodiy operatsiyalarning shaffofligi, tezkorligi va ishonchiligidini ta'minlash bilan birga, yangi turdagi raqamli aktivlar va xizmatlarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Xususan, blokcheyn texnologiyasi markazlashmagan va xavfsiz tranzaksiyalarni amalga oshirish imkonini bersa, sun'iy intellekt iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish va prognozlash samaradorligini oshiradi. Bulutli hisoblash texnologiyalari ma'lumotlarni saqlash va qayta ishlash xarajatlarini kamaytirishga xizmat qilsa, big data texnologiyalari katta hajmdagi iqtisodiy ma'lumotlarni tezkor tahlil qilish imkoniyatini yaratadi.

Virtual iqtisodiyotning shakllanishi va rivojlanishi bo'yicha xalqaro ilmiy adabiyotlarda ham ushbu jarayon alohida e'tirof etiladi. Tadqiqotchilar ta'kidlashicha, raqamli texnologiyalarning rivojlanishi natijasida iqtisodiy faoliyat tobora virtual muhitga ko'chib, qiymat yaratish va ayirboshlashning yangi shakllari vujudga kelmoqda [3].

TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy jihatdan virtual iqtisodiyot virtual makonda shakllanadigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, u raqamli aktivlarni ishlab chiqarish, taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol qilish jarayonlarini o'z ichiga oladi. Mazkur iqtisodiy modelda qiymat yaratish va almashinuvi ko'pincha markazlashmagan tizimlar orqali amalga oshiriladi hamda an'anaviy vositachilarning roli sezilarli darajada qisqaradi.

Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko'ra, virtual iqtisodiyot quyidagi asosiy xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

1. Iqtisodiy faoliyatning virtual va raqamli makonda amalga oshirilishi;
2. Virtual aktivlar va raqamli resurslarning muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'lishi;
3. Iqtisodiy munosabatlarning platforma iqtisodiyoti tamoyillari asosida tashkil etilishi;
4. Hisob-kitoblarning raqamli valyutalar va tokenlar orqali amalga oshirilishi;
5. Geografik chegaralarning nisbatan qisqarishi hamda global integratsiyaning kuchayishi.

Hozirgi bosqichda virtual iqtisodiyot rivojlanishining yangi drayverlaridan biri sifatida metaverse konsepsiyasi alohida e'tiborga loyiqdir. Metaverse — bu virtual reallik (virtual reality), kengaytirilgan reallik (augmented reality) va internet texnologiyalarining integratsiyasi asosida shakllangan kompleks raqamli makon bo'lib, unda foydalanuvchilar o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy aloqalarga kirishadilar. Ushbu muhitda virtual mulk, raqamli xizmatlar va boshqa iqtisodiy aktivlar bilan bog'liq operatsiyalar amalga oshiriladi, bu esa virtual iqtisodiyotning yanada chuqurlashuviga xizmat qiladi.

Virtual iqtisodiyot doirasida iqtisodiy operatsiyalar turli raqamli platformalar orqali amalga oshiriladi va bu jarayon yangi iqtisodiy mexanizmlarning shakllanishiga olib kelmoqda. Raqamli platformalar asosida shakllanayotgan iqtisodiy munosabatlar yangi qiymat yaratish mexanizmlarini yuzaga keltirmoqda. Virtual platformalar va raqamli xizmatlar iqtisodiyotda qiymat yaratishning yangi shakllarini shakllantirib, iqtisodiy jarayonlarning globallashtirishini jadallashtirmoqda [4].

Virtual iqtisodiyot zamonaviy iqtisodiy tizimning muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, raqamli transformatsiya jarayonlarining ajralmas elementiga aylanib bormoqda. Uning rivojlanishi istiqbolda iqtisodiy



munosabatlarning yangi modellari va institutsional shakllarini yuzaga keltirishi kutilmoqda. Platformaga asoslangan iqtisodiyot va virtual aktivlarning rivojlanishi global bozorlar tuzilmasini o'zgartirib, an'anaviy iqtisodiy munosabatlarni qayta shakllantirmoqda [5].

Virtual iqtisodiyotning rivojlanishi bir necha bosqichlarda namoyon bo'ladi:

1-bosqich: Onlayn o'yin iqtisodiyoti

Mazkur bosqichda virtual iqtisodiyot asosan onlayn o'yin platformalari doirasida shakllandi. Jumladan:

– World of Warcraft — internet orqali o'ynaladigan ommaviy onlayn o'yin bo'lib, unda virtual iqtisodiy munosabatlar shakllangan;

– Second Life — foydalanuvchilarga virtual muhitda iqtisodiy faoliyat yuritish imkonini beruvchi platforma.

Mazkur platformalarda virtual buyumlar va virtual valyutalar paydo bo'lib, ular iqtisodiy qiymat kasb eta boshladi.

2-bosqich: Platforma iqtisodiyoti

Raqamli platformalarning paydo bo'lishi virtual iqtisodiyot rivojlanishini yanada jadallashtirdi. Ushbu bosqichda foydalanuvchilar o'zlari kontent yaratish, uni sotish va iqtisodiy foyda olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Masalan:

– Roblox — foydalanuvchilarga o'yinlar yaratish va boshqa foydalanuvchilar yaratgan virtual muhitlarda ishtirok etish imkonini beruvchi onlayn platforma.

3-bosqich: Metaverse iqtisodiyoti

Hozirgi bosqichda virtual iqtisodiyot metaverse platformalari asosida rivojlanmoqda. Jumladan:

– Decentraland — foydalanuvchilarga virtual yer maydonlarini sotib olish, bino qurish va 3D virtual makonda iqtisodiy faoliyat yuritish imkonini beruvchi platforma;

– The Sandbox — foydalanuvchilarga virtual obyektlar yaratish, yer sotib olish va virtual mahsulotlarni sotish imkonini beruvchi metaverse platformasi.

4-bosqich: Virtual iqtisodiyotning asosiy elementlari

Virtual iqtisodiyot quyidagi asosiy elementlardan tashkil topadi:

– Virtual valyutalar — virtual iqtisodiyotdagi moliyaviy operatsiyalar asosan kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladi. Masalan:

– Bitcoin — markazlashmagan raqamli valyuta bo'lib, onlayn to'lovlar va investitsiyalar uchun qo'llaniladi;

– Ethereum — blokcheyn texnologiyasiga asoslangan platforma bo'lib, smart contract va markazlashmagan ilovalarni (dApps) qo'llab-quvvatlaydi.


– Virtual aktivlar — iqtisodiy qiymatga ega bo'lgan raqamli obyektlar bo'lib, ular ko'pincha NFT (Non-Fungible Token) texnologiyasi asosida yaratiladi;

– Virtual platformalar — virtual iqtisodiyotning asosiy infratuzilmasini tashkil etuvchi raqamli tizimlar;

– Foydalanuvchilar — virtual iqtisodiyotning asosiy ishtirokchilari bo'lib, ular virtual muhitda iqtisodiy faoliyatni amalga oshiradilar.

5-bosqich: Virtual iqtisodiyotning ilmiy modeli

Virtual iqtisodiyot tizimini konseptual model asosida ifodalash mumkin. Ushbu modelda raqamli platformalar, virtual aktivlar, foydalanuvchilar, texnologik infratuzilma va iqtisodiy munosabatlar o'zaro integratsiyalashgan holda faoliyat yuritadi (1-rasm).



1-rasm. Virtual iqtisodiyot modeli



Ushbu chizma virtual iqtisodiyotning ishlash mexanizmini sodda va tizimli shaklda ifodalaydi.

Birinchi bosqichda blokcheyn, sun'iy intellekt va internet texnologiyalari asosiy texnologik baza sifatida xizmat qiladi. Aynan ushbu texnologiyalar asosida turli virtual platformalar — metaverse tizimlari, onlayn o'yinlar va raqamli ilovalar shakllanadi.


Keyingi bosqichda ushbu platformalarda foydalanuvchilar faoliyat yuritadi. Ular virtual muhitda ishtirok etib, iqtisodiy jarayonlarning asosiy subyektlariga aylanadi. Foydalanuvchilarning faoliyati natijasida ikki muhim iqtisodiy element shakllanadi:

- virtual aktivlar (raqamli buyumlar, NFT va boshqa raqamli obyektlar);
- virtual valyutalar (kriptovalyutalar yoki o'yin ichidagi raqamli pul birliklari).

Mazkur aktivlar va valyutalar o'zaro ayirboshlanishi natijasida virtual iqtisodiy aylanma shakllanadi.

Virtual iqtisodiyot zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida shakllanib, platformalar orqali foydalanuvchilar ishtirokida faoliyat yurituvchi yaxlit tizimni tashkil etadi. Ushbu tizimda virtual aktivlar va valyutalar muhim iqtisodiy resurs sifatida namoyon bo'lib, ular o'zaro integratsiyalashgan holda iqtisodiy aylanmani yuzaga keltiradi. Natijada iqtisodiy jarayonlar an'anaviy makondan raqamli muhitga ko'chib, iqtisodiy munosabatlarning yangi shakllari vujudga kelmoqda.

Bunda blokcheyn texnologiyalari tranzaksiyalarning shaffofligi va xavfsizligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Raqamli platformalar esa foydalanuvchilar o'rtasida tezkor almashinuv va xizmatlar ko'rsatish imkoniyatlarini kengaytiradi. Metaverse muhitining rivojlanishi virtual iqtisodiyotning yangi bosqichga ko'tarilishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, Bitcoin va Ethereum kabi kriptovalyutalar global moliyaviy tizimda muqobil to'lov vositasi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda (2-rasm).



2-rasm. Virtual iqtisodiyot ekotizimi¹

Chizma virtual iqtisodiyotning shakllanish jarayonini bosqichma-bosqich va tizimli tarzda ifodalaydi. Unda raqamli texnologiyalar asosiy poydevor sifatida namoyon bo'lib, aynan shu texnologiyalar negizida virtual platformalar shakllanadi. Mazkur platformalar esa virtual xizmatlar va virtual valyutalar kabi muhim iqtisodiy elementlarning paydo bo'lishiga xizmat qiladi.

Ushbu komponentlarning o'zaro integratsiyasi natijasida yagona virtual iqtisodiy tizim vujudga keladi. Ya'ni, chizma virtual iqtisodiyotning texnologik asoslardan boshlab, amaliy iqtisodiy faoliyatgacha bo'lgan uzviy va ko'p bosqichli rivojlanish mexanizmini umumiy ko'rinishda aks ettiradi.

Virtual iqtisodiyotning jadal rivojlanishi global iqtisodiy tizimga ko'p qirrali va kompleks ta'sir ko'rsatmoqda. Avvalo, ushbu jarayon mehnat bozorining transformatsiyalashuviga olib kelib, yangi kasb va faoliyat turlarining shakllanishini ta'minlamoqda. Xususan, raqamli platformalar, frilans faoliyat, kontent yaratish, blokcheyn asosidagi loyihalar hamda sun'iy intellekt bilan bog'liq yo'nalishlarda yangi ish o'rinlari yuzaga kelib, bandlikning moslashuvchan shakllari kengaymoqda.

Shuningdek, virtual iqtisodiyot raqamli investitsiya muhitining rivojlanishiga sezilarli turtki bermoqda. Kriptoaktivlar, tokenlashtirilgan aktivlar, startap loyihalar hamda kraudfunding platformalari orqali investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari kengayib, kapital harakatining yangi mexanizmlari shakllanmoqda. Bu esa investorlar uchun geografik cheklavlarni kamaytirib, global moliyaviy integratsiyani kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari, global savdo tizimi ham raqamlashtirish jarayonlari ta'sirida tubdan o'zgarib bormoqda. Elektron tijorat platformalari, raqamli to'lov tizimlari va aqlli shartnomalar (smart contracts) asosida amalga

1 Muallif ishlanmasi



oshirilayotgan operatsiyalar xalqaro savdoni yanada tezkor, shaffof va samarali tashkil etishga imkon yaratmoqda. Natijada kichik va o'rta biznes subyektlari uchun ham global bozorga chiqish imkoniyatlari kengaymoqda.

Virtual iqtisodiyot innovatsion biznes modellarining shakllanishi uchun ham muhim zamin yaratmoqda. Platforma iqtisodiyoti, obuna asosidagi xizmatlar, sharing economy hamda metaverse asosidagi tijorat faoliyati kabi yangi yondashuvlar iqtisodiy samaradorlikni oshirish bilan birga, iste'molchilarning xulq-atvorini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahlillar asosida umumiy xulosa qilish mumkinki, virtual iqtisodiyot zamonaviy raqamli transformatsiya jarayonlarining muhim natijasi sifatida shakllanib, global iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismiga aylanib bormoqda. U axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, xususan blokcheyn, sun'iy intellekt va raqamli platformalar asosida rivojlanib, iqtisodiy munosabatlarning an'anaviy shakllarini tubdan o'zgartirmoqda.

Virtual iqtisodiyot doirasida qiymat yaratish, taqsimlash va iste'mol qilish jarayonlari virtual muhitga ko'chib, yangi iqtisodiy makon va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Natijada yangi ish o'rinlari, innovatsion biznes modellar, global savdo hamda investitsiya mexanizmlarining takomillashuvi ta'minlanmoqda. Ayniqsa, metaverse, raqamli aktivlar va Bitcoin hamda Ethereum kabi kriptovalyutalar iqtisodiy tizimning yangi drayverlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

Umuman olganda, virtual iqtisodiyot katta iqtisodiy salohiyatga ega bo'lgan istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Uning samarali rivojlanishini ta'minlash uchun mustahkam institutsional asoslarni shakllantirish, aniq huquqiy me'yorlarni ishlab chiqish hamda xavfsiz va barqaror raqamli infratuzilmani rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2020-yil 22-sentabrda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi materiallari.
2. A. Vahobov. Raqamli iqtisodiyot asoslari. – Toshkent, 2021. – 320 bet.
3. Sh. Mustafakulov. Innovatsion iqtisodiyot. – Toshkent, 2020. – 280 bet.
4. N. Yo'ldoshev. Zamonaviy iqtisodiy boshqaruv masalalari. – 200 bet.
5. Don Tapscott. Blockchain Revolution. – New York, 2016. – 368 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>